

O'zbekiston Respublikasi
Qurilish vazirligining

2020 yil “_____” _____ dagi
_____ - sonli buyrug'i bilan
tasdiqlangan

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
QURILISH VAZIRLIGI**

SAMARQAND DAVLAT ARXITEKTURA-QURILISH INSTITUTI

**5150911 - “Dizayn: landshafd dizayni”
5150903 - “Dizayn: inter'erni loyihalash”**

**“Rangtasvir” va “Chizmachilik”
fanlaridan**

**KASBIY (IJODIY) IMTIHONLAR
DASTURI, BAHOLASH MEZONI VA FAN MAJMUALARI**

Kiritdi:

Samarqand davlat arxitektura-qurilish
instituti rektori

_____ S.I.Axmedov

«_____» _____ 2020 yil

Samarqand – 2020

Dastur Samarqand davlat arxitektura-qurilish instituti o‘quv-uslubiy kengashida ko‘rib chiqilgan va ma’qullangan. 2020 yil “26” iyun 7- sonli majlis bayoni.

Tuzuvchilar:

Samarqand davlat arxitektura - qurilish instituti “Tasviriy san’at” kafedrası mudiri,
Sh.O‘rinboyev;

Samarqand davlat arxitektura - qurilish instituti “Tasviriy san’at” kafedrası o‘qituvchisi, dotsent **H. Jo‘rayev;**

Samarqand davlat arxitektura - qurilish instituti “Muhandislik grafikasi va kompyuterda loyihalash” kafedrası mudiri, dotsent **SH.Uzoqov.**

Taqrizchilar:

Samarqand davlat universiteti “Tasviriy san’at ” kafedrası mudiri, dotsent
D. Omonov;

Samarqand davlat universiteti “Muhandislik grafikasi ” kafedrası mudiri,dotsent
I. Suvonqulov.

1. Kirish

Alohida iqtidor talab etiladigan 5150911 - “Dizayn: landshafd dizayni” 5150903 - “Dizayn: inter’erni loyihalash” bakalavr ta’lim yo’nalishlari uchun imtihon dasturi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Alohida iqtidor talab etiladigan bakalavriat ta’lim yo’nalishlariga kirish test sinovlarisiz, kasbiy (ijodiy) imtihonlar orqali qabul qilish tartibi to’g’risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 2018 yil 27 iyuldagi 588-son qarori va O‘zbekiston Respublikasi ta’lim muassasalariga o‘qishga qabul qilish bo‘yicha Davlat komissiyasi majlisining 2020 yil 19 iyundagi 1-son bayoni asosida tayyorlangan.

Kasbiy (ijodiy) imtihon dasturi umumiy o’rta (11-sinf negizida), o’rta maxsus, kasb-hunar (shu jumladan madaniyat, san’at, musiqa, sport va jismoniy tarbiyaga ixtisoslashtirilgan) ta’lim fanlarining o’quv dasturlariga muvofiq tuzilgan bo’lib, abituriyentlarning amaliy ko’nikma va malakalarini aniqlash uchun mo’ljallangan. Rasm chizishning grafik usullari asosida abituriyentlarning ijodiy qobiliyatlarini sinovdan o’tkazish va qo’yilma (natura)ni chizishga oid kompetensiyalarini baholashdan iborat.

Chizmachilik fani bo‘yicha: abituriyentlarga imtihon topshiriqlarini berishdan maqsad chizma chizish qoidalarini va standartlarini, proeksion aloqalarini, munosabatlarini va ko‘rinishlarini bilishi, chiziq turlari, o‘lchamlar qo‘yish, qirqimlar turlari va ularni qo‘llashga oid nazariy bilim va amaliy ko‘nikmalarga ega bo‘lishi kerak.

Rangtasvir fani bo‘yicha berilgan naturani ranglar asosida tasvirlash, yorug‘ va soyalarni, old va orqa planlarni ko‘rsatish bo‘yicha abituriyentlarning ijodiy qobiliyatlarini sinovdan o’tkazish va ranglarni to‘g‘ri tanlashlarini baholashdan iboratdir.

5150911 - “Dizayn: landshafd dizayni”, 5150903 - “Dizayn: inter’erni loyihalash” bakalavr ta’lim yo’nalishlari bo‘yicha tanlovda talabalikka qatnashuvchi abituriyentlar “Rangtasvir” va “Chizmachilik” fanlaridan ijodiy imtihon topshiradilar.

Birinchi ijodiy imtihon “Rangtasvir” – maksimal 96,0 ball;

Ikkinchi ijodiy imtihon “Chizmachilik” – maksimal 93,0 ball;

Jami maksimal - 189,0 ball.

2. Kasbiy-ijodiy imtihonning maqsad va vazifalari

“Rangtasvir” fani bo‘yicha: Bir necha xil ranglar ko‘rinishida bo‘lgan mato (drapirovka) va buyumlardan (mevalar, gullar, sopol) iborat bo‘lgan natyurmortni tasvirlash vazifasi beriladi. Bu topshiriqni berishdan maqsad abituriyentlar berilgan natyurmortning “rangtasvir” fanidan rang va borliqdagi hamda tasvirdagi munosabatlari, rangtasvir kompozitsiyasining bajarilish qonuniyatlarini qabul qilish imkoniyatini, ranglarning o‘zaro bog‘lanishi va qog‘ozga moslab joylashtirilishini,

rang qatlamlarning tuzilishini, ranglarni to‘liq va chegaralangan holdagi uyushmasini palitrasining imkoniyatini, “rangtasvir” imkoniyati va tasvirning uslubiy materiallar texnologiyasi va ish anjomlarining imkoniyatlardan foydalana bilishlarini aniqlashdan iboratdir. Abiturientning rangtasvirdan mahorati, koloristik bilimi va uni amalda mohirona ko‘rsata bilishi aniqlanadi.

“Chizmachilik” fani bo‘yicha: abiturientlarga imtihon topshiriqlarini berishdan maqsad abiturient chizma chizish qoidalari, standartlari, proeksion aloqalari, chiziq turlari, o‘lchamlar qo‘yish, qirqimlar turlari va ularni qo‘llash ko‘nikmalarga ega bo‘lishi kerak. Abiturientning chizma chizish mahoratini amalda ko‘rsata bilishi zarur.

3. Abiturient bilimiga qo‘yiladigan talablar

“Rangtasvir” fani bo‘yicha:

- abiturient naturaga (natyurmort manzara) e‘tibor bergan holda rangtasvir faniga oid sirlarni to‘liq ko‘rsatib berishi;
- ranglar aylanmasidagi ranglar qonuni to‘g‘risidagi tushunchalarga amal qilgan holda qo‘yilgan natyurmortni bo‘yash;
- ranglar oralig‘idagi qarama - qarshilik, sovuq - issiq ranglar to‘g‘risidagi tasavvurni amalda qo‘llay bilish.
- shaxsning individual, etuklik davrida abiturient rangtasvir qonuniyatlari orqali o‘zining e‘tiqodini, sog‘lom dunyoqarashini, badiiy sanatsa bo‘lgan qiziqishini, rangli bo‘yoqlar, oddiy qalamlar va mo‘yqalamlar bilan ifodalay olishi va ulardan foydalana bilishi.
- fanning mazmunidan kelib chiqqan holda berilgan naturaga tegishli bo‘lgan anjomlarni badiiy ifodalab;
- ranglar texnologiyasini o‘zlashtirish va bajarilayotgan vazifada namoish etish kabi talablarni bajarishi lozim.

“Chizmachilik” fani bo‘yicha:

- turli grafik texnika sohasidagi ishlar vositalari: grafik qalam, burchakli, gradusli, yoysimon chizg‘ichlar, sirkul va boshqalar;
- geometrik shakllarning plastik tutashuv qonunlari, oldidan va ustidan ko‘rinishlar asosida detalning uchinchi ko‘rinishini yaratish, aksonometrik proeksiyalar, chizmani joylashtirish haqida tasavvurga ega bo‘lishi;
- amaliyotda egallangan bilimlari asosida chizmachilik anjomlarini qo‘llashni;
- o‘lchamlarni qo‘yish qoidalari;
- masshtablar, chiziqlar;
- detallar qiyofalarining geometrik asoslari, ko‘rinishlar, qirqimlar va kesimlar, chizmalarda yozuvlar va belgilashlarni bilishi va ulardan foydalana olishi;
- fazoviy hajmni qog‘oz tekisligida grafik texnikasida tasvirlash;

- nafaqat ko‘rinadigan, balki hayoldagi, faraz qilinadigan ob‘ektlarni tasvirlash;
- ijodiy fikrlab va ko‘rish qobiliyati orqali chizishni rivojlantirish ko‘nikmalariga ega bo‘lishi kerak.

4. “Rangtasvir” fanidan kasbiy (ijodiy) imtihonning baholash mezonlari

Vazifa: Imtihonda turli ranglarga ega oddiy buyumlar (gipsli rozetka yoki geometrik jism, sopol yoki mis qumg‘on, mevalar va sabzavodlar) dan tuzilgan natyurmort qo‘yiladi. Rasmlar A3 formatdagi torshon qog‘ozida akvarel suv bo‘yog‘i yordamida bajariladi.

Rangtasvir 2 (ikki) soat davomida bajariladi.

Rangtasvir kasbiy (ijodiy) imtihoni ishlarini baholashning maksimal bali - (96,0 ball).

№	Mezonlar	Mezonlar asosida belgilangan ballar
1.	Natyurmortning qog‘oz formatiga nisbatan to‘g‘ri joylashtirilganligi quyidagi 4 ta bosqichning biri bilan baholanadi:	0,0-10,0
1.1	<i>Natyurmort qog‘oz formatiga butunlay noto‘g‘ri joylashtirilgan</i>	<i>0,0-1,0</i>
1.2	<i>Natyurmort qog‘oz formatiga joylashtirilgan, ammo kamchiliklar bor (qog‘oz formatiga nisbatan bir oz kichik yoki bir oz katta)</i>	<i>2,0-5,0</i>
1.3	<i>Naturmort qog‘oz formatiga chap yoki o‘ngroq joylashtirilgan</i>	<i>6,0-7,0</i>
1.4	<i>Natyurmort qog‘oz formatiga nisbatan to‘g‘ri joylashtirilgan</i>	<i>8,0-10,0</i>
2.	Ufq chizig‘i to‘g‘ri topilganligi quyidagi 4 ta bosqichning biri bilan baholanadi:	0,0-10,0
2.1	<i>Buyum va yuzalarda tasvirlanishida ufq chizig‘iga umuman amal qilinmagan</i>	<i>0,0-1,0</i>
2.2	<i>Tasvir ufq chizig‘iga nisbatan ancha past yoki ancha yuqori joylashtirilgan</i>	<i>2,0-5,0</i>
2.3	<i>Ufq chizig‘ini aniqlashda noaniqliklar bor (narsa va buyumlar tasvirida nomutanosibliklar mavjud)</i>	<i>6,0-7,0</i>
2.4	<i>Ufq chizig‘i barcha buyum tasviri va yuzalarda to‘g‘ri topilgan</i>	<i>8,0-10,0</i>
3.	Narsa va buyumlarning o‘zaro nisbatlari to‘g‘ri topilganligi quyidagi 4 ta bosqichning biri bilan baholanadi:	0,0-12,0
3.1	<i>Natura nisbatlarini topishga umuman harakat qilinmagan, juda qo‘pol xatoliklar mavjud</i>	<i>0,0-1,0</i>

3.2	<i>Natura nisbatlarini topishda jiddiy xatoliklar mavjud bo'lsa.</i>	2,0-5,0
3.3	<i>Naturaga qo'yilgan narsa va buyumlar nisbatlari topilgan, ammo xato va kamchiliklar mavjud</i>	6,0-9,0
3.4	<i>Narsa va buyumlarning o'zaro nisbatlari to'g'ri topilgan</i>	10,0-12,0
4.	Rang bilan ishlashda nur va soya qonuniyatlariga amal qilinganligi quyidagi 4 ta bosqichning biri bilan baholanadi:	0,0-11,0
4.1	<i>Nur va soya qonuniyatlariga umuman amal qilinmagan yoki ular noto'g'ri ko'rsatilgan</i>	0,0-1,0
4.2	<i>Natura sirti, uning atrofidagi nur va soyalarni ko'rsatishda qo'pol xatoliklarga yo'l qo'yilgan</i>	2,0-4,0
4.3	<i>Natura sirti, uning atrofidagi nur va soyalarni ko'rsatishga harakat qilingan, ammo ularda kamchiliklar mavjud (blik, yorug', yarim soya, soya va refleks tasviridagi izchillik buzilgan)</i>	5,0-7,0
4.4	<i>Natura sirti hamda uning atrofidagi nur va soyalar to'g'ri ko'rsatilgan (blik, yorug'lik, yarim soya, soya va refleks tasviridagi izchillik kabilar o'z o'rnida)</i>	8,0-11,0
5.	Naturani ishlashda rang munosabatlari to'g'ri topilganligi quyidagi 4 ta bosqichning biri bilan baholanadi:	0,0-15,0
5.1	<i>Naturani ishlashda rang munosabatlari topilmagan (natyurmort ranglarida narsa va buyumlarning o'zaro rang munosabatlari o'rtasida umuman bog'liqlik yo'q)</i>	0,0-2,0
5.2	<i>Natyurmortni ishlashda rang munosabatlarini to'g'ri ko'rsatishga harakat qilingan, ammo ular talab darajasida bo'lmaganda (natyurmort ranglarida narsa va buyumlarning o'zaro rang munosabatlari o'rtasida bog'liqlik kamroq)</i>	3,0-5,0
5.3	<i>Natyurmortni ishlashda rang munosabatlarini to'g'ri ko'rsatishga harakat qilingan, ammo ranglar buzib ko'rsatilgan</i>	6,0-9,0
5.4	<i>Naturani ishlashda rang munosabatlari to'g'ri topilgan (natyurmort ranglarida narsa va buyumlarning o'zaro rang munosabatlari o'rtasida bog'liqlik mavjud)</i>	10,0-15,0
6.	Perspektiva (chiziqli va havo perspektivasi) qoidalariga amal qilinganligi quyidagi 4 ta bosqichning biri bilan baholanadi:	0,0-12,0
6.1	<i>Perspektiva qoidalariga (chiziqli-rangli va havo perspektivasi) umuman amal qilinmagan, juda qo'pol xatoliklar mavjud</i>	0,0-1,0
6.2	<i>Chiziqli-rangli va havo perspektivasi jiddiy xatoliklar mavjud</i>	2,0-5,0
6.3	<i>Chiziqli perspektiva qoidalari bajarilgan, ammo rang va havo perspektivasiga amal qilinmagan</i>	6,0-8,0

6.4	<i>Perspektiva (chiziqli va havo perspektivasi) qoidalariga amal qilingan</i>	9,0-12,0
7.	Akvarel bo'yog'i texnikasidan to'g'ri foydalanilganligi quyidagi 4 ta bosqichning biri bilan baholanadi:	0,0-13,0
7.1	<i>Akvarel bo'yog'i texnikasidan noto'g'ri foydalanilgan</i>	0,0-1,0
7.2	<i>Akvarel bo'yog'i texnikasidan to'g'ri foydalanishga harakat qilingan, ammo buzilishlar mavjud. (ba'zi hollarda ranglar qo'yilishi o'ta quruq va qalin, guash texnikasi bilan aralashib ketgan)</i>	2,0-4,0
7.3	<i>Akvarel bo'yog'i texnikasidan to'g'ri foydalanishga harakat qilingan, ammo ayrim qismlarda akvarel texnikasiga rioya qilinmagan</i>	5,0-8,0
7.4	<i>Akvarel bo'yog'i texnikasidan to'g'ri foydalanilgan.</i>	9,0-13,0
8.	Narsa va buyumlar fakturasi (mato, sopol, chinni, metal va boshqalar) to'g'ri ifoda etilganligi quyidagi 5 ta bosqichning biri bilan baholanadi:	0,0-13,0
8.1	<i>Tasvirda narsa va buyumlar fakturasi (materiallik) umuman ko'rsatilmagan</i>	0,0-1,0
8.2	<i>Tasvirda narsa va buyumlar fakturasini (materiallik) ko'rsata olmagan, bajarilgan ishda ularning fakturasini aniqlab bo'lmaydi</i>	2,0-4,0
8.3	<i>Natyurmortdagi narsa va buyumlar fakturasi (materiallik)ni ko'rsatishda kamchiliklar bor (buyumlarning haqiqiy fakturasini oxirigacha ko'rsata olmagan va hakazo)</i>	5,0-6,0
8.4	<i>Natyurmortdagi narsa va buyumlar fakturasi (materiallik)ni qisman ko'rsatilgan</i>	7,0-9,0
8.5	<i>Tasvirda narsa va buyumlar fakturasi (materiallik) to'g'ri ifoda etilgan</i>	10,0-13,0
	Jami maksimal ball:	96.0

Izoh. Baholash mezonining kichik bandlarida berilgan raqamlar shu band bo'yicha berilishi mumkin bo'lgan ballni belgilaydi. **Masalan,** 5-bo'limning 5.3 bandidagi **“6,0-9,0”** raqami shu ko'rsatkich bo'yicha **6,0** dan - **9,0** gacha bo'lgan oraliqda baholanishi mumkinligini anglatadi.

5. “Chizmachilik” fanidan kasbiy (ijodiy) imtihoni baholash mezonlari

Chizmachilik fanidan ijodiy imtihon maksimal **93,0** ball bilan hisoblanadi va u bitta vazifadan iborat bo‘ladi.

Chizmachilik fanidan **A-3** format o‘lchamdagi qog‘ozda qalamda, M 1:1 mashtabda bajariladi.

Imtihon vaqti 1 soat (60 minut).

Vazifa: ikki ko‘rinishi bo‘yicha berilgan detalning yetishmovchi ko‘rinishi topilsin va zarur qirqimlar bajarilsin hamda o‘lchamlar ko‘rinishlarga teng taqsimlab qo‘yilsin. Detalning aksonometrik (to‘g‘ri burchakli izometrik yoki to‘g‘ri burchakli dimetrik) proeksiyasi yasalsin va zarur qirqim berilsin.

“Chizmachilik”dan vazifaning baholanishi quyidagicha:

№	Mezonlar	Mezonlar asosida belgilangan ballar
1.	Ikki ko‘rinishi bo‘yicha berilgan detalning yetishmovchi ko‘rinishi topish va zarur qirqimlar bajarilsh hamda o‘lchamlar ko‘rinishlarga standart asosida taqsimlab qo‘yilsh quyidagi 10 ta bandlar yig‘indisi ko‘rinishida baholanadi:	0,0-48,0
1.1	Shartini to‘g‘ri anglab, berilgan ko‘rinishlarni standart asosida ko‘chirganligi	0,0-5,0
1.2	Masshtab to‘g‘ri tanlanganligi	0,0-3,0
1.3	Detalning yetishmovchi ko‘rinishini standart asosida to‘g‘ri boshlaganligi	0,0-4,0
1.4	Detalning yetishmovchi ko‘rinishini to‘g‘ri yakunlaganligi	0,0-7,0
1.5	Ko‘rinishga kerakli qirqim turidan to‘g‘ri foydalanganligi	0,0-4,0
1.6	Ko‘rinishga kerakli qirqim to‘liq yakunlanganligi	0,0-7,0
1.7	Chizilgan uchun ko‘rinishda o‘lchamlarni to‘g‘ri taqsimlanganligi	0,0-5,0
1.8	Standart asosida o‘lchamlarni yozilganligi uchun;	0,0-6,0
1.9	Ko‘rinishda va o‘lchamlarni qo‘yishda chiziq turlariga rioya qilinganligi	0,0-5,0
1.10	Shartni bajarishda standart qo‘pol xatolikka yo‘l qo‘yilmagan	0,0-2,0

2.	Detalning aksonometrik (to‘g‘ri burchakli izometrik yoki to‘g‘ri burchakli dimetrik) proeksiyasi yasalgani va zarur qirqim berilganligi uchun quyidagi 9 ta bandlar yig‘indisi ko‘rinishida baholanadi:	0,0-45,0
2.1	Aksonometrik proeksiya to‘g‘ri boshlanganligi	0,0-7,0
2.2	Aksonometrik proeksiyada geometrik figuralarni to‘g‘ri tasvirlaganligi	0,0-5,0
2.3	Aksonometrik proeksiya to‘liq yakunlanganligi	0,0-6,0
2.4	Aksonometriyada qirqim turini to‘g‘ri tanlagani	0,0-4,0
2.5	Aksonometriyada qirqim to‘liq yakunlanganligi	0,0-7,0
2.6	Aksonometriyada chiziq turlariga rioya qilinganligi	0,0-6,0
2.7	Chizmani chizma qog‘oziga to‘g‘ri joylashtirilganligi	0,0-4,0
2.8	Chizmani chizma qog‘ozda sifatli bajarilganligi	0,0-4,0
2.9	Shartni bajarishda standart qo‘pol xatolikka yo‘l qo‘yilmaganligi	0,0-2,0
	Jami maksimal ball:	93,0

Izoh: baholash mezonining kichik bandlarida berilgan raqamlar shu band bo‘yicha maksimsi balni belgilaydi. Masalan, 1-bandning 1.4 kichik bandidagi “0,0-7,0” raqami shu ko‘rsatkich bo‘yicha 0 dan-7 gacha oraliqda baholanishini anglatadi.

Eslatma. Ijodiy imtihonga qatnashmagan abituriyentga qayta topshirishga imkoniyat berilmaydi va “0” ball bilan baholanadi.

Imtihon natijalari imtihon o‘tkazilgan kunning ertasiga e‘lon qilinadi.

6. Kasbiy (ijodiy) imtihon topshiriladigan fanlar majmuasi

t/r	Ta‘lim yo‘nalishi kodi	Bakalavriyat ta‘lim yo‘nalishi nomi	1-fan	2-fan
1.	5150911	Dizayn: landshaft dizayni	rangtasvir	chizmachilik
2.	5150903	Dizayn: inter‘erni loyihalash	rangtasvir	chizmachilik

7. Apellyatsiya tartibi

Abituriyent kasbiy (ijodiy) imtihon natijalari e‘lon qilingandan so‘ng 24 soat ichida apellyatsiya komissiyasiga murojaat etish huquqiga ega. Apellyatsiya faqat abituriyentning o‘z ishi natijalari bo‘yicha ko‘rib chiqiladi. Institut rektorining buyrug‘iga binoan har-bir fan uchun 3 nafar mutaxassislardan iborat bo‘lgan apellyatsiya komissiyasi tashkil etiladi.